

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

NABIYEV NAVRUZ GULOMJONOVICH

**O‘SMIRLAR O‘RTASIDA AKSIOLOGIK YONDASHUVLAR
ASOSIDA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLIH MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI
(sinf dan tashqari ishlar misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan -2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Nabiyev Navruz Gulomjonovich

О'smirlar o'rtasida aksiologik yondashuvlar asosida jinoyatchilikni oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish metodikasi (sinfdan tashqari ishlar misolida)..... 3

Набиев Навруз Гуломжонович

Методика совершенствования механизмов предупреждения преступности среди подростков на основе аксиологических подходов (на примере внеурочной деятельности)..... 25

Nabiev Navruz Gulomjonovich

Methodology for Improving Mechanisms of Crime Prevention Among Adolescents Based on Axiological Approaches (on the example of extracurricular activities)..49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 55

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

NABIYEV NAVRUZ GULOMJONOVICH

**O‘SMIRLAR O‘RTASIDA AKSIOLOGIK YONDASHUVLAR
ASOSIDA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLIH MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI
(sinf dan tashqari ishlar misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan -2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B.2024.1.PhD/Ped7493 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.namspi.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali (www.ziyo.net) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xusanov Bahodir Ergashevich
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ibragimov A'lamjon Amrilloevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Lutfullayev Pulatxon Muxibullayevich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "28" 10 soat 900 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko'chasi 316-uy. Tel.: (998) 69 211-11-69; faks: (998) 69 211-11-69; e-mail: info@namspi.uz.)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1872 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko'chasi 316-uy. Tel.: (998) 69 211-11-69; faks: (998) 69 211-11-69)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "14" 10 kuni tarqatildi.

(2025-yil "14" 10 dagi 13 - raqamli reyestr bayonnomasi).



M.R.Qodirxonov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, k.f.d. (DSc), dotsent

S.X.Mutalov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

M.A.Asqarova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yoshlar hayotida yuzaga keladigan turli muammolarni aniqlash, ularning shakllanish jarayonlarini pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilish, mavjud muammolarga nisbatan samarali chora-tadbirlarni belgilash hamda oqilona yechim topish yo‘llarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda nafaqat muammoni aniqlash, balki natijalarni to‘g‘ri baholash, o‘z vaqtida va asoslangan qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Narkotiklar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi (UNODC) tomonidan ilgari surilgan “Line Up, Live Up”¹ tashabbuslari o‘smirlarning turli emotsional muammolarga qarshi chidamliligini oshirish, ijtimoiy faolligini rivojlantirish hamda sog‘lom hayot tarzini targ‘ib etishga qaratilgan bo‘lsa, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (OSCE) tashabbuslari esa o‘quvchilar o‘rtasida huquqbuzarliklarni oldini olish, jinoyatga moyilligi mavjud bo‘lgan o‘smirlarni ijtimoiy-pedagogik jihatdan korreksiya qilishning samarali mexanizmlarini yaratish va mazkur jarayonning metodologik bazasini mustahkamlashni muhim pedagogik muammo sifatida ko‘rib chiqmoqda.

Dunyoda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy o‘zgarishlar, jamiyatning ma‘naviy-axloqiy hayotidagi yangilanishlar ta‘lim-tarbiya jarayoniga bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, savodsizlik darajasining oshishi, bilim olishga bo‘lgan qiziqishning susayishi, yoshlarning intellektual salohiyatidagi pasayish holatlari ularning kelajak hayotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, ba‘zi hollarda bilib-bilmay jinoyat ko‘chasiga kirib qolishiga zamin yaratmoqda. Shu bois, ta‘lim tizimida yuzaga kelayotgan mazkur muammolarni integratsion yondashuv asosida tadqiq etish, jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan “jinoyatdan holi hudud” g‘oyasini shakllantirish, shuningdek, pedagogik jarayonlar va tarbiyaviy muhitni barqarorlashtirishga xizmat qiluvchi sinfdan tashqari ishlarning samarali metodik bazasini ishlab chiqish bugungi kunda ilmiy jamoatchilikdan chuqur izlanishlar olib borishni talab etmoqda. Mazkur yondashuv nafaqat o‘quvchilar ongida huquqiy madaniyatni mustahkamlash, balki ularni ijtimoiy faol, ongli, ma‘naviy barkamol shaxslar etib tarbiyalashga, maktab muhitini xavfsiz va sog‘lom saqlashga ham xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Respublikamizda o‘smirlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olish, ta‘lim-tarbiya muhitida o‘quvchilarni pedagogik rehabilitatsiya qilish va profilaktik tadbirlar asosida o‘quv-tarbiya jarayoni mazmunini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy, huquqiy va ijtimoiy asoslar yaratilgan. Ta‘lim muassasalari hamda jamoatchilik tuzilmalari ko‘magida o‘smirlar bilan ishlash tizimida voyaga yetmagan shaxsning qarovsiz qolganligi holatlarini aniqlash, kuzatish, o‘rganish va profilaktika tadbirlari olib borish ijtimoiy-pedagogik zaruratga aylanmoqda. Bu jarayonda e‘tibordan chetda qolayotgan, nosog‘lom muhitda voyaga yetayotgan o‘smirlar va jinoyatchilikka moyilligi bor vaziyatlarni erta aniqlash va ularning

¹ <https://www.unodc.org/dohadeclaration/en/sports/lineupliveup.html>

ijtimoiy-pedagogik korreksiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Profilaktika faoliyatida jamoat tashkilotlari va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik kuchaytirish, huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash, ularning kelib chiqish sabablari va omillarini tahlil qilish, shuningdek pedagogik ishlov berishga oid kompleks tadbirlarni amalga oshirishning pedagogik tamoyillarni mustahkamlash dolzarb vazifaga aylanmoqda. O'smirlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olishda pedagogik faoliyat klasteri subyektlarining o'zaro hamkorligini ta'minlash, o'quvchilarning dars va darsdan tashqari vaqtini samarali tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari hamda amalga oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish bo'yicha fundamental tadqiqotlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi PF-5313-son "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son "Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida", 2021-yil 3-avgustdagi 490-son "O'smirlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 18-yanvardagi 23-son "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlaridan B.Qodirov, O.Hasanboyeva, Z.Zaripov, G'.B.Shoumarov, E.G'oziev, V.M.Karimova, Z.F.Kamaletdinova, E.Quljonov, N.Komilova, K.Abdurasulova, Sh.A.Abdullayevlar tomonidan o'smirlar o'rtasida sodir etilayotgan jinoyatchilik, giyohvandlik va alkogolizm kabi illatlarning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi ijtimoiy-psixologik, pedagogik omillar va ularning oldini olish borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Mazkur masalalarning huquqiy asoslari X.R.Alimov, A.A.Maxmudov, N.T.Ismoilov, M.J.Eshnazarov, S.B.Xujaqulov, T.Xojiev, F.Samig'jonov, K.Nazarov, Sh.R.G'ofurovlarning ishlarida o'rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlaridan T.B.Kirillova, Y.G.Shubnikova, Y.Kondrat, V.D.Yermakov, A.A.Savchenko, L.V.Pavlova, S.V.Arakelyanlar kabi bir qator olimlar o'z tadqiqotlarida o'smirlar o'rtasida sodir etilayotgan jinoyatchilikning ijtimoiy-psixologik muammolarini, ularga makro va mikro muhitning ta'siri va uning jinoyatchilik xulqining kelib chiqishidagi o'rni, yoshlar jinoyatchiligining asosiy sabab va motivlari hamda o'smirlar jinoyatchiligini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida fikr-mulohazalar yuritishgan.

B.A.Merenskiy, B.A.Rayskiy, T.L.Braginskaya, I.D.Feldshteyn, I.L.Nevskiy kabi tadqiqotchilar tomonidan yoshlar o'rtasida sodir bo'layotgan jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi sabablari o'rganilgan.

Xorij olimlari Welsh B., Farrington D., Cerda M, Morenoff J.D., Hansen B.B., Kling J.R, Ludwig J., Katz L.F., Sciandra M., Sanbonmatsu L., Duncan G.J., Gennetian L.A., R.C.Kessler va boshqalar tomonidan jinoyatchilikning ilmiy nazariy asoslari, yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning pedagogik jarayonlar asosida profilaktika qilish masalalari tadqiq etilgan.

Biroq, o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikni oldinini olishning huquqiy, nazariy asoslari o'rganilgan bo'lsa-da, o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikni aksiologik yondashuvlar asosida oldini olish mexanizmlari hamda o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olishda pedagogik faoliyat klasteri subyektlarini hamkorlikda ishlashining pedagogik-psixologik xususiyatlari va metodik imkoniyatlarini aniqlash masalalari yetarlicha tadqiq etilmaganligi mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya ishining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining B.M-24 "Pedagogik ta'lim va tarbiya transformatsiyasida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarning konseptual asoslari" mavzusi asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'smirlar o'rtasida aksiologik yondashuvlar asosida jinoyatchilikni oldini olish mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sinfdan tashqari ishlar asosida o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olish muammosining pedagogik-psixologik omillarini aniqlash;

o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olishda aksiologik yondashuvning pedagogik imkoniyatlarini va ilmiy-metodologik asoslarini aniqlash;

ta'lim tizimida aksiologik yondashuvlar asosida o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olishning funksional modelini ishlab chiqish;

o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olish usullari, pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyeksi sifatida ta'lim tizimida aksiologik yondashuvlar asosida o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olish mexanizmlari tanlanib, tajriba-sinov ishlariga Namangan viloyati Chust tumanidagi 76-maktab, Toshkent viloyati Chirchiq shahridagi 15-maktab, Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi 11-maktab tanlab olindi, jami 442 nafar respondent jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini ta'lim tizimida aksiologik yondashuvlar asosida o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olishning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida mavzuga oid pedagogik, psixologik, metodik adabiyotlar, ilmiy manbalar, o'quv-me'yoriy hujjatlar, o'quv reja va dasturlarni qiyosiy o'rganish va tahlil qilish, kuzatuv, suhbat, test, o'z-o'zini baholash so'rovi, pedagogik-metodik tajriba-sinov, tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sinfdan tashqari ishlar asosida o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olish muammosining pedagogik-psixologik va amaliy-metodologik asoslari "o'quvchi-oila-mahalla-maktab" subyektlarining ijtimoiy koordinatsion faoliyatini loyihalash, o'quvchilarning jinoyatchilikka moyilligini ilmiy-metodologik aspektda korreksiyalash orqali pedagogik jarayonlarda aksiologik ta'limotlarni malakalash asosida aniqlashtirilgan;

sinfdan tashqari o'quv-tarbiyaviy ishlarning metodik ta'minoti, qo'shimcha ta'lim o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning o'zgaruvchan shakllarini rivojlantirish orqali o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olishning intensiv akkomodatsiyasini ta'minlash, ijodiy-faoliyatli yondashuv bilan hayotiy vaziyatlarda o'quvchilarni optimal qarorlar qabul qilishning intuitsiya va reflektiv mashqlarni kollaborativ qo'llash asosida takomillashtirilgan;

o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olishning funksional modeli fasilitatsion komponentlarni metodik jarayonlarning mazmuniga singdirish va metodik shartlarni tizimlashtirish orqali "Ustoz-shogird tizimi"ning pedagogik hamkorlik doirasini qayta belgilash asosida o'quvchilarning psixopedagogik mexanizmlar ko'magida ijtimoiy-foydali odatlarga addiksiyasini ta'minlash asosida modifikatsiya qilingan;

o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olishning pedagogik mexanizmlari, shaxsga yo'naltirilgan va aksiologik yondashuvlarga implementatsiya qilishning eksperimental samaradorlik indikatorlari asosida baholash orqali o'quvchining reflektiv bilimi va kognitiv imkoniyatlarini kengaytirishning sotsial-ta'limiy loyihalarni amaliy aprobatsiyasini mustahkamlash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

aksiologik yondashuvlar asosida o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan didaktik ta'minot, hayotiy vaziyatlarga asoslangan mashqlar va ijodiy topshiriqlarni o'z ichiga olgan ijtimoiy loyihalar tizimi ishlab chiqilgan;

aksiologik yondashuvlar asosida o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olishning funksional modeli ishlab chiqilgan;

aksiologik yondashuvlar asosida o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olishning usullari, pedagogik mexanizmlari tizimlashtirilgan;

intellektual mulk agentligidan aksiologik yondashuvlar asosida o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan texnologiyalarga oid dasturlar va elektron ma'lumotlar bazalari uchun bitta mualliflik guvohnomasi olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuvlar ilmiy-metodik usullar respublikamiz va xorijiy olimlarning qarashlari, amaliyotchi o'qituvchilarning tajribalariga tayanilgan, nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik statistik tahlilga asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif qilingan aksiologik yondashuvlar asosida o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan ilg'or metodlar va kouch suhbatlar, real

vaziyatlarga asoslangan loyiha ishlari va pedagogik-metodik shart-sharoitlari asoslanganligi, aksiologik yondashuvlar asosida o‘smirlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olishning modeli ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dars va darsdan tashqari jarayonlarda o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanligini shakllantirish bo‘yicha maxsus o‘quv kurslari va treninglarning o‘quv rejaları va axborot metodik ta‘minoti hamda elektron ta‘lim resurslari ishlab chiqilganligi hamda bo‘ljak pedagoglar uchun “Huquqiy tarbiya“ fanidan o‘quv qo‘llanma yaratilganligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aksiologik yondashuvlar asosida o‘smirlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olish mexanizmlari bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

sinfdan tashqari ishlar asosida o‘smirlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olish muammosining pedagogik-psixologik va amaliy-metodologik asoslari “o‘quvchi-oila-mahalla-maktab” subyektlarining ijtimoiy koordinatsion faoliyatini loyihalash, o‘quvchilarning jinoyatchilikka moyilligini ilmiy-metodologik aspektida korreksiyalash orqali pedagogik jarayonlarda aksiologik ta‘limotlarni malakalash asosida aniqlashtirishga doir ilmiy-metodik xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Adliya vazirligining 2025-yil 20-yanvardagi “Tazyiq o‘tkazuvchi, shu jumladan, tarbiyasi og‘ir voyaga yetmaganlarga kuchaytirilgan huquqiy ta‘lim berish va tarbiyalashga oid maxsus dasturlarni qo‘llash to‘g‘risida”gi 4/30/7-1/2252-son qo‘shma qarori bilan tasdiqlangan dastur loyihasini tayyorlashda foydalanildi (O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2025-yil 31-martdagi 2/1751-son ma‘lumotnomasi); Natijada, aksiologik yondashuvlar asosida o‘smirlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olishning usullari va pedagogik mexanizmlarini tizimlashtirishga erishilgan.

sinfdan tashqari o‘quv-tarbiyaviy ishlarning metodik ta‘minoti, qo‘shimcha ta‘lim o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning o‘zgaruvchan shakllarini rivojlantirish orqali o‘smirlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olishning intensiv akkomodatsiyasini ta‘minlash, ijodiy-faoliyatli yondashuv bilan hayotiy vaziyatlarda o‘quvchilarni optimal qarorlar qabul qilishning intuitsiya va refleksiv mashqlarni kollaborativ qo‘llash asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston yoshlar ishlari agentligi tomonidan amalga oshirilayotgan “Ibrat farzandlari” ijtimoiy loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston yoshlar ishlari agentligining 2025-yil 01-maydagi 2-15-21-2295-son ma‘lumotnomasi). Natijada aksiologik yondashuvlar asosida o‘smirlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan didaktik ta‘minot va ijtimoiy loyihalar tizimi ishlab chiqishga erishilgan.

o‘smirlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olishning funksional modeli fasilitatsion komponentlarni metodik jarayonlarning mazmuniga singdirish va metodik shartlarni tizimlashtirish orqali “Ustoz-shogird tizimi”ning pedagogik hamkorlik doirasini qayta belgilash asosida o‘quvchilarning psixopedagogik mexanizmlar ko‘magida ijtimoiy-foydali odatlarga addiksiyasini ta‘minlash asosida modifikatsiya qilish bo‘yicha berilgan amaliy taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-dekabrda “Bolalar

masalalari bo'yicha komissiyalar faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-201-son Farmoni va 2024-yil 5-fevraldagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida qonunbuzarliklar profilaktikasi tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-55-son Qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda foydalanildi (O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasining 2025-yil 19-martdagi 1/1E-578-son ma'lumotnomasi). Natijada tadqiqot modeli asosida o'smirlarda hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish darajasi oshirilgan va ularning ijtimoiy moslashuvchanligi mustahkamlangan.

o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olishning pedagogik mexanizmlari, shaxsga yo'naltirilgan va aksiologik yondashuvlarga implementatsiya qilishning eksperimental samaradorlik indikatorlari asosida baholash orqali o'quvchining refleksiv bilimi va kognitiv imkoniyatlarini kengaytirishning sotsial-ta'limiy loyihalarni amaliy aprotatsiyasini mustahkamlash asosida takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalardan O'zbekiston yoshlar ishlari agentligi tomonidan amalga oshirilayotgan "Ibrat farzandlari" ijtimoiy loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston yoshlar ishlari agentligining 2025-yil 01-maydagi 2-15-21-2295-son ma'lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan metodik ishlanmalar va ijtimoiy kontentlar o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olishning metodik tizimini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqoti natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 11 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jami 5 ta ilmiy maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 156 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning "**Aksiologik yondashuvlar asosida o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olishning ilmiy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida aksiologik yondashuvlarning nazariy aspektlari, ta'lim tizimida o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olish pedagogik muammo sifatida, o'smirlar o'rtasida sodir etilgan jinoyatchilikning regional tahliliga oid ma'lumotlar o'rganilgan. Bugungi kun pedagogikasining birlamchi yo'nalishi

shaxsning o'zini o'zi anglashi va shaxsiy dunyoqarashini rivojlantirishga qaratilganligidir. Inson o'zini shaxs sifatida tushunishi va tan olishi uchun avvalo o'z qadriyatlaridan xabardor bo'lishi va tushunishi muhimdir. Inson hayoti o'tmishni baholash, maqsad qo'yish, bilim olish va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib qaror qabul qilish bilan xarakterlanadi. Qadriyatlar yosh avlodning axloqiy qarashlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, ularga muammolarni hal qilishda etik yondashuvni o'rgatadi. Yoshlar yaxshilik, adolat, halollik va rahmshafqat kabi axloqiy tamoyillarni o'zlashtirib, to'g'ri tanlovlar qilishni o'rganadi, bu esa o'zaro munosabatlarga ijobiy ta'sir qiladi.

Qadriyatlar yosh avlodni ijtimoiy mas'uliyatli va axloqiy jihatdan yetuk shaxslar sifatida shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular yoshlarga o'z haquhuqlari va majburiyatlarini anglash, jamiyatga faol xizmat qilish va axloqiy me'yorlarga rioya qilishni o'rgatadi. Qadriyatlar asosida shakllangan axloqiy qarashlar yoshlarga murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, o'zaro hurmatga asoslangan ijtimoiy munosabatlar o'rnatish imkonini beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida qadriyatlar o'smirlarning shaxsiy fazilatlarini, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarini rivojlantiradi. Halollik, sabr, mehnatsevarlik, samimiyat va mas'uliyat kabi qadriyatlar yoshlarning o'zini o'zi anglashi va mustaqil shaxs sifatida yetishishiga yordam beradi. Qadriyatlar shaxs va jamiyat hayotidagi ma'naviy, axloqiy, ijtimoiy va madaniy normalarni aks ettirib, yoshlarni o'zini va boshqalarni hurmat qilishga undaydi. Qadriyatlar tarbiyasi ota-onalar, tarbiyachilar va jamiyatning asosiy vazifasi bo'lib, kelajak avlodning mas'uliyatli va axloqiy jihatdan yetuk fuqarolar sifatida shakllanishini ta'minlaydi. Qadriyatlar insonlarning xulq-atvorini, qarorlarini va hayotga bo'lgan munosabatini belgilovchi asosiy tamoyillar hisoblanadi. Ular hayotdagi eng muhim jihatlar, masalan, adolat, halollik, sevgi, do'stlik, hurmat, ma'naviyat, va boshqalarni o'z ichiga oladi. Qadriyatlarni o'rganuvchi fan qadriyatshunoslik, ya'ni aksiologiya so'zi, yunoncha "axio" (qadriyat) va "logos" (o'rganish) so'zlaridan olingan bo'lib, qadriyatlar haqidagi fanni anglatadi. Aksiologiya fanining o'quv jarayoniga integratsiyalashuvi o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish, vatanparvarlik, sadoqat, mas'uliyat kabi tuyg'ularni tarbiyalashda zamonaviy talablarga mos keladi. Insoniyat yillar davomida hayotiy muammolarni qadriyatlar asosida yechib keldi. Globallashuvning g'ayriaxloqiy va ommaviy madaniyat ta'siriga qarshi aksiologiya rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida ma'naviy immunitet shakllantirish mexanizmi sifatida qo'llanilmoqda. Quyida qadriyatlarining asosiy turlari keltirilgan:

1. Axloqiy qadriyatlar – yaxshilik, yomonlik, adolat kabi tushunchalarni aks ettiruvchi, odamlarning xulq-atvori, istaklari va qarorlariga asoslangan qadriyatlar bo'lib, jamiyat va shaxs hayotida muhim rol o'ynaydi. Ular inson yo'lini belgilab, boshqalar bilan munosabatlarga ta'sir qiladi. Pedagogika doirasida axloqiy qadriyatlar ta'lim jarayonida shaxsni shakllantirish, tarbiyalash va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

2. Ijtimoiy qadriyatlar – jamiyatda qabul qilingan, odamlarning xulq-atvori, fikrlash tarzi va munosabatlarini belgilovchi normalar va an'analar to'plami bo'lib, ijtimoiy tuzilma, davlat, madaniyat va guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga

solishda muhim rol o'ynaydi. Har bir madaniyat o'ziga xos qadriyatlar va an'analarni shakllantiradi.

3. Madaniy qadriyatlar jamiyatlarning barqarorligi, ijtimoiy birdamligi va ahil yashashini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ular insonlarni birlashtirib, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi, zamonaviy muammolarga qarshi turishda yordam beradi va madaniyatlararo munosabatlar hamda muloqotlarni shakllantiradi.

4. Estetik qadriyatlar – go'zallik, san'at va ijtimoiy tajribaga asoslangan, odamlarning his-tuyg'ulari va estetik qarashlarini belgilovchi qiymatlardir. Ular san'at, dizayn, arxitektura, moda va boshqa estetik ifoda sohalarida namoyon bo'lib, madaniyat, tarix va shaxsiy tajribalar bilan bog'liqdir.

5. Shaxsiy qadriyatlar – shaxsning hayotidagi muhim prinsiplar, e'tiqodlar va ehtiyojlar to'plami bo'lib, uning xulq-atvori, qaror qabul qilishi va dunyoqarashini shakllantiradi. Ular tajriba, ta'lim, etnik-madaniy kelib chiqish va oilaviy an'analarga bog'liq bo'lib, vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin.

Aksiologik yondashuvlar insonparvarlik pedagogikasining muhim sohasi sifatida jamiyat taraqqiyotidagi asosiy qadriyatlarning ahamiyatini ta'kidlaydi. Bu yo'nalish 1902-yilda nemis olimi P.Lapi tashabbusi bilan shakllana boshlagan va keyinchalik Yevropa tadqiqotchilari tomonidan chuqur o'rganilgan. O'zbek olimlari ichida J.T.Tulenov qadriyatlar falsafasini birinchilardan bo'lib o'rgangan. Keyinchalik E.Yusupov, S.Komilova, I.Karimov, Q.Nazarov, S.Valiyeva, M.Rustamova, Q.Tulenov kabi faylasuflar aksiologiyaning turli jihatlarini o'rganishga hissa qo'shdilar.

1980-yillardan boshlab pedagogik aksiologiya bo'yicha tadqiqotlar B.S.Gershunskiy, V.M.Rozin, Y.B.Turalov, M.I.Fisher va P.G.Shedrovetskiyning ilmiy izlanishlari asosida rivojlana boshladi. Pedagogik faoliyatning aksiologik tavsifi B.Z.Vulfov, V.A.Slastyanin, E.N.Shiyanovlar asarlarida o'z aksini topgan.

O'quvchilarning qadriyatlarga yo'naltirilganligini shakllantirishning amaliy tajribasini tahlil qilish, ta'limni qadriyat deb tashxislash vazifalarini shakllantirish, uning insonparvarlik xususiyatini aks ettirish bilan bog'liq izlanishlar V.I.Ginetsinskiy, I.F.Isaev, N.D.Nikandrov, Z.I.Ravkin, N.S.Rozov, V.A.Slastyonin, E.N.Shiyanov, Sh.Q.Mardonov, T.Toshlonov, Y.Ismoilova, B.Xodjaev, Sh.Taylanova, M.F.Qurbonova, J.Yo'ldashev va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida o'rganilgan. R.Nurmuhamedov va I.Yunusovlar "qadriyat" tushunchasini insonning ta'limi va tarbiyasini qadr-qimmatini bilan tenglashtirishga harakat qilib, insonni axloqiy-ma'naviy nuqtayi nazardan har tomonlama baholash uchun qo'llaniladigan axloqiy tushuncha sifatida ta'riflaydilar.

Aksiologiya insonning axloqiy, estetik va ijtimoiy qadriyatlarini tahlil qiladi. O'smirlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishda aksiologik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar tarbiyasi shaxslararo munosabatlarda mas'uliyat hissini rivojlantiradi va o'smirlarni ijtimoiy faoliyatga jalb qilish orqali ularning jamiyatdagi o'rini topishiga yordam beradi.

Jinoyatchilikning oldini olish pedagogik muammo sifatida erta diagnostika qilinishi jazo choralaridan ko'ra samaraliroqdir. Bu muammo ta'lim, tarbiya va

ijtimoiy muhitdagi omillar, shuningdek, o'smirlar qabul qilayotgan axborotlar bilan bog'liq. Ta'lim jarayonida o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar bilim bilan birga hayotiy tajriba va axloqiy me'yorlarni o'rgatadi. Agar ta'lim muassasalari o'smirlar ehtiyojlarini qondirmasa, ular o'zlarini inkor qilingan his qilishi va jinoyatchilikka moyil bo'lishi mumkin. O'qituvchilar ishonchli munosabatlar o'rnatib, o'smirlarning muammolarini tinglash va hal qilish orqali jinoyatchilikni oldini olishga hissa qo'shadi. Pedagoglar, ta'lim muassasalari va oila o'rtasidagi hamkorlik o'smirlarning ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishda muhimdir. Ota-onalar va jamoatchilik tarbiyaviy mexanizmlar va ijtimoiy tashabbuslar orqali xavfsiz muhit yaratadi. O'smirlarning vaqt va resurslardan foydalanishini nazorat qilish, ularni mustaqil bilim olishga jalb qilish jinoyatchilikning oldini olishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Globalashuv va axborot oqimi o'quvchilarning ta'lim va tarbiyasiga ta'sir ko'rsatmoqda. Statistika ko'ra, yoshlar orasida jinoyatlar soni o'sib bormoqda, bunda maktab o'quvchilari katta qismni tashkil qiladi. O'zbekistonda 2020-yilda voyaga yetmaganlar tomonidan qayd etilgan 3000 ga yaqin jinoyatning aksariyati mayda o'g'irlik va bezorilikdan iborat.

2023-yilda O'zbekistonda 3599 nafar voyaga yetmagan jinoyat sodir etgan, ulardan 82,6% (2971 nafar) jinoiy javobgarlikka tortilgan. Jinoyatchilarning 744 nafari 13-15 yosh, 2855 nafari 16-17 yoshda bo'lgan, qizlar ulushi 8,7% (314 nafar). Hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar: Farg'ona viloyati (700 nafar), Toshkent shahri (545 nafar), Namangan viloyati (451 nafar), Toshkent viloyati (345 nafar). Eng past ko'rsatkichlar: Jizzax (54 nafar), Navoiy (62 nafar), Xorazm (66 nafar).

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar quyidagi turlarga bo'linadi:

o'g'irlik - 1602 nafar (2022-yilda 1581 nafar);

bezorilik - 453 nafar (2022-yilda 284 nafar);

firibgarlik - 135 nafar (2022-yilda 134 nafar);

talonchilik va bosqinchilik - 181 nafar (2022-yilda 162 nafar);

qasddan badanga og'ir shikast yetkazish - 104 nafar (2022-yilda 74 nafar);

nomusga tegish va nomusga tegishga urinish - 54 nafar (2022-yilda 46 nafar);

tovlamachilik - 27 kishi (2022-yilda 16 nafar);

qasddan odam o'ldirish va odam o'ldirishga urinish - 12 nafar (2022-yilda 10 nafar) jinoyatini sodir etgan.²

O'smirlik davri (10-11 yoshdan 14-15 yoshgacha) – shaxsning psixologik rivojlanishida muhim bosqich bo'lib, emotsional, intellektual, shaxsiy va ijtimoiy o'zgarishlar yuz beradi. Bu davrda o'zini anglash, ijtimoiy aloqalarni o'rganish, hissiyotlarni boshqarish va psixologik salomatlikni ta'minlash muhimdir. Ushbu jarayonlar o'smirning kelajakdagi shaxsiyati va ijtimoiy munosabatlariga katta ta'sir ko'rsatadi.

² <https://www.gazeta.uz/oz/2024/06/youth-crime/>

Dissertatsiyaning **“Aksiologik yondashuvlar asosida o‘smirlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olishning pedagogik mexanizmlari”** nomli ikkinchi bobida zamonaviy ta‘lim tizimida aksiologik yondashuvlar asosida o‘smirlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olishning pedagogik imkoniyatlari, bu jarayonning modeli hamda pedagogik diagnostika va korreksiya usullari tahlil qilingan.

Jinoyat – bu huquqiy qoidalarni buzish, jamiyat yoki shaxsga zarar yetkazadigan, qonun bilan jazolanishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlikdir. “Jinoyat” tushunchasi birinchi marta 1791-yildagi Fransiya Jinoyat kodeksida ta‘riflangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 14-moddasiga ko‘ra, jinoyat – qonun bilan taqiqlangan, aybli va ijtimoiy xavfli qilmishdir. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olishda pedagogik imkoniyatlar o‘quv muassasalarida tizimli ravishda tashkil etiladi. Bu jarayonda o‘qituvchilarning pedagogik mahorati, maktab jamoasi va hamkor tashkilotlarning profilaktik faoliyati muhim ahamiyatga ega. Pedagogik imkoniyatlar ota-onalar, profilaktika inspektorlari, psixologlar va o‘qituvchilarning hamkorlikda, muammodan yechimga yo‘naltirilgan faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Pedagogik imkoniyatlar o‘quv jarayonida o‘quvchilarni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash uchun yaratilgan sharoitlar va resurslardir. O‘smirlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish maktab, hamkor tashkilotlar va kompleks yondashuv orqali amalga oshiriladi. Pedagogik diagnostik profilaktika – o‘quvchilarning salbiy xulq-atvor, jinoyatchilik, stress va psixologik muammolarining oldini olishga qaratilgan faoliyat bo‘lib, ularning sog‘lom rivojlanishi, ijtimoiy ko‘nikmalari va muhitga moslashuvini ta‘minlaydi.

Asosiy yo‘nalishlar:

1. Ta‘lim va tarbiya: ijtimoiy ko‘nikmalar, emotsional intellekt va stress boshqaruvi o‘rgatish, sog‘lom turmush tarzi dasturlari.

2. Ijtimoiy tadbirlar: sport, san‘at va madaniyat festivallari orqali ijtimoiy muloqotni rivojlantirish.


3. Psixologik yordam: psixologik tadbirlar va maslahat xizmatlari.

4. Ota-onalar bilan hamkorlik: seminarlar, treninglar va ota-onalar bilan aloqani mustahkamlash.

5. Ijtimoiy muhit: adolat, tenglik va ijobiy muhit yaratish, muammolarni muhokama platformalari taqdim etish.

Pedagogik diagnostik va profilaktik faoliyat o‘quvchilarning ijtimoiy, emotsional va psixologik jihatdan to‘g‘ri rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qiladi. Bu faoliyat orqali o‘quvchilarda xavfsizlik hissi shakllanadi, ijtimoiy mas‘uliyat ortadi va ular jamiyatda muvaffaqiyatli shaxs sifatida kamol topadilar.

Takomillashtirilgan **“O‘smirlar o‘rtasida aksiologik yondashuvlar asosida jinoyatchilikni oldini olish modeli”** (1-rasmga qarang) yuqorida ko‘rsatilgan muammolarni ijobiy yechimida amaliy-metodik vosita bo‘lib, mazkur model maqsad, metodologik, tashkiliy, baholash va natija kabi 4 ta komponentdan iborat.



1-rasm. "O'smirlar o'rtasida aksiologik yondashuvlar asosida jinoyatchilikni oldini olish modeli"

Voyaga yetmaganlarning ijtimoiy xulq-atvorining oldini olish ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Bu jarayon nafaqat psixologik diagnostika, balki ota-onalar bilan tarbiyaviy ishlar, o'qituvchilar uchun yo'l-yo'riqlar, bolalarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish va ularni jamoaviy munosabatlar orqali rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Tadqiqotda aksiologik yondashuv asosida quyidagi yo'nalishlar muhim deb topiladi:

huquqiy ta'lim va psixologik yordam – o'quvchi va ota-onalarga huquqiy, ijtimoiy hamda hayotiy ko'nikmalar berish;

oilaviy muhitni baholash – asotsial xatti-harakatlarga sabab bo'luvchi xavf omillarini aniqlash va tashxis qo'yish;

tarbiya uslublarini o'rgatish – ota-onalarga jazo va bosimsiz tarbiya metodlarini tushuntirish;

pedagoglar bilan ishlash – o'qituvchilarga shaxsga yo'naltirilgan, ziddiyatlarni bartaraf etuvchi yondashuvlarni o'rgatish va mahalla, profilaktika nozirlari bilan hamkorlikni kuchaytirish;

madaniy-profilaktik tizim yaratish – ta'lim, dam olish va sog'lomlashtirish tadbirlarini qamrab oluvchi, qadriyatlarga asoslangan profilaktik chora-tadbirlarni joriy etish.

Ushbu bosqichlar o'smirlar jinoyatchiligining oldini olishda aksiologik yondashuvni samarali qo'llash orqali shaxsda ijobiy o'zgarishlar yuzaga kelishini ta'minlaydi.

Pedagogik korreksiya – bu o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonida paydo bo'ladigan qiyinchiliklar va muammolarni aniqlash, baholash va bartaraf etish maqsadida olib boriladigan faoliyatlar to'plamidir. Ushbu jarayon o'quvchilarning individual xususiyatlarini, qobiliyatlarini va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta'lim jarayonini yaxshilashga qaratilgan. Pedagogik korreksiya o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash, qobiliyatlarni rivojlantirish, o'quv jarayonini optimallashtirish, emotsional va ijtimoiy moslashuvchanlikni oshirish maqsadida amalga oshiriladi. Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish sharoitida pedagogik diagnostikani turli usullar orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarning ijtimoiy-psixologik portfoliosi - bu ularning ijtimoiy ko'nikmalarini, hissiy intellektini va psixologik rivojlanishini kuzatish va baholash uchun mo'ljallangan dastur. Ushbu portfolio o'quvchilarning shaxslararo munosabatlarini yaxshilashda, shuningdek, ularning ijtimoiy moslashuvchanligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aksiologik yondashuvlar asosida o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olish pedagogik-profilaktik diagnostikalash shaxsga yo'naltirilgan mexanizm bo'lib, pedagogik-profilaktik diagnostikalash bu ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijtimoiy va psixologik holatini erta bosqichda aniqlash, muammolarni oldini olish va ularni samarali hal etish uchun mo'ljallangan tizimdir. Aksiologik yondashuvlar asosida o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olishda, pedagogik profilaktik diagnostikalash quyidagi asosiy jihatlardan iborat:

1. Ma'lumotlar yig'ish va tahlillash
2. Ehtiyojlarni aniqlash.
3. Profilaktik dasturlarni ishlab chiqish.
4. Monitoring va baholash.

5. Hamkorlik va jamoaviy yondashuv.

Pedagogik profilaktik diagnostika vositalari sifatida:

Heller testi: jamoaviy muammolarni hal qilish va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini baholashga mo'ljallangan;

Katz testi: shaxsiy xulq-atvor, o'smir o'z-o'zini anglashgacha bog'liq masalalarni baholashga qaratilgan bo'lib bunda o'smirlarning: o'zlariga bo'lgan ishonchi, ijtimoiy munosabatlarda qanday harakat qilishlari hamda ijtimoiy muammolarni qanday hal qilishlari haqida ma'lumotlar yig'iladi.

Torrens testi: "Ijodiy tafakkur testlari" (Torrance Tests of Creative Thinking – TTCT) shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faollik, tezkor fikrlash, o'ziga xos (orginal)lik kabi mezonlar bo'yicha baholash imkoniyatini yaratadi.

Karpov testi: Mazkur tetst o'smirlarning shaxsiy xulq-atvorini va psixologik holatini tahlil qilishga mo'ljallangan. Ushbu testda ham o'smirlarning ijtimoiy ko'nikmalari, muammoli vaziyatlarda qanday harakat qilishlari, jamoadagi individual qobiliyatlari, hissiy holati, stressga chidamliligini aniqlash imkonini beradi.

Likert shkalasi: respondentlarning biror fikr, hissiyot yoki munosabatlarini baholash uchun keng qo'llaniladigan statistik usuldir. Likert shkalasi 1932-yilda amerikalik psixolog Rensis Likert tomonidan ishlab chiqilgan. O'shandan beri u respondentlarning turli bayonotlarga rozi yoki rozi emasligini o'lchash uchun eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biriga aylandi. Ushbu usul pedagogik jarayonlarda hamda ilmiy tadqiqot ishlariga obyekt sifatida tanlangan respondentlar bilan amalga oshiriladigan faoliyatni maqsaddan natijaga qarab amalga oshirishga yordam beradi.

Pedagogik profilaktik diagnostika vositalari sifatida foydalanilgan mazkur testlar aksiologik yondashuvlarni integratsiyalash hamda o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olish imkonini beruvchi so'rovnoma va topshiriqlar asosida takomillashtirilgan.

Sinfdan tashqari ishlar o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu jarayon o'smirlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni ijtimoiy foydali faoliyatga jalb qilish, qiziqishlari va iste'dodlarini rivojlantirish, salbiy ta'sirlardan himoya qilishga qaratilgan. Sinfdan tashqari ishlar o'smirlarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, vatanparvarlik, ijtimoiy mas'uliyat, huquqiy madaniyat kabi fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Sport to'garaklari, badiiy ijod, intellektual o'yinlar, turli fanlar bo'yicha qo'shimcha mashg'ulotlar, ekskursiyalar, sayohatlar, ijtimoiy foydali mehnat va boshqa ko'plab faoliyat turlari o'smirlarning bo'sh vaqtini to'ldirib, ularni jinoyatchilik yo'lidan chalg'itadi. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o'smirlarning yosh va individual xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va imkoniyatlari hisobga olinishi lozim. O'smirlarni o'z tengdoshlari bilan muloqot qilish, jamoada ishlash, liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish, o'zaro hurmat va hamjihatlikka o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Sinfdan tashqari ishlar jarayonida o'smirlarga jinoyatchilikning oqibatlarini, uning jamiyat va shaxsga yetkazadigan zarari haqida tushuncha berish, huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni amalga

oshirish zarur. O‘smirlar bilan individual va guruhli suhbatlar o‘tkazish, ularning muammolari bilan qiziqish, yordam berish, psixologik qo‘llab-quvvatlash jinoyatchilikning oldini olishda samarali vosita bo‘lishi mumkin. Sinfdan tashqari ishlarni samarali tashkil etish uchun o‘qituvchilar, ota-onalar, mahalla faollari, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari va boshqa tashkilotlarning hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Sinfдан tashqari ishlar jarayonida o‘smirlarda deduktiv jarayonlarni intensiv optimallashtirish, ijodiy-faoliyatli imkoniyatlarini maksimal darajada oshirish, yangi bilim va ko‘nikmalarni qabul qilishga, turli hayotiy vaziyatlarda mustaqil, faol va mas‘uliyatli qarorlar qabul qilishni shakllantirishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar qo‘llaniladi.

“Men tanlagan kasb”, “Men ota-ona bo‘lganimda!” kabi mavzularidagi kouch suhbatlar o‘smirlarni o‘z kelajagi haqida o‘ylashga, kasb tanlashga ongli yondashishga, ota-onalik mas‘uliyatini anglashga undaydi. “10 yildan keyin men”, “Men Nobel mukofotini olishim uchun...”, “Men qahramon bo‘lganimda” kabi intuitsiya mashqlari o‘smirlarning ijodiy tasavvurini rivojlantiradi, maqsadlar qo‘yishga va ularga erishish yo‘llarini izlashga o‘rgatadi. “Men hech qachon qilmaganman...”, “Mening qadriyatlarim”, “Mening xatolarim men uchun saboq bo‘ldi” kabi reflektiv mashqlar o‘smirlarni o‘z xatti-harakatlari, qadriyatlari va xatolari ustida mulohaza yuritishga, o‘zini anglashga va o‘z ustida ishlashga undaydi. Ushbu mashqlar sinfdan tashqari ishlar jarayonida kollaborativ qo‘llanilishi o‘smirlar o‘rtasida o‘zaro ishonch, hamjihatlik va hamkorlik muhitini yaratadi, ularni jinoyatchilikdan saqlaydi, ijtimoiy moslashuvga yordam beradi va hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlashga ko‘maklashadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Aksiologik yondashuvlar asosida o‘smirlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olishning pedagogik mexanizmlari samaradorligi”** deb nomlangan bo‘lib, bu bobda o‘smirlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olishning pedagogik mexanizmlari samaradorligini aniqlash maqsadida tashkil etilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari mazmuni, vazifalari, pedagogik tajriba-sinov natijalari va samaradorlik ko‘rsatkichlari bayon etilgan.

Tajriba-sinov ishlarida Namangan viloyati Chust tumanidagi 76-maktab, Toshkent viloyati Chirchiq shahridagi 15-maktabda, Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi 11-maktablarda uch bosqichda aniqlovchi (2022-2023-yillar), rivojlantiruvchi (2023-2024-yillar) va yakunlovchi (2024-2025-yillar) bosqichlarda o‘tkazildi.

O‘tkazilgan tajriba-sinovda ishtirok etgan aksiologik yondashuvlar asosida osmirlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olishning pedagogik mexanizmlari samaradorligi darajasining sezilarli darajada oshganligi aniqlandi. Sinov ishlariga tajriba maydonlari sifatida qabul qilingan jami 442 nafar respondent jalb etildi. Jami o‘quvchilarning tajriba-sinov maydoni bo‘lgan viloyatlar bo‘yicha quyidagicha taqsimlandi.

Tajriba-sinov umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-,8-,9-sinfning aksiologik yondashuvlar asosida o‘smirlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olishning pedagogik mexanizmlari tanlanma usul bilan tajriba sinov uchun tajriba sinflarida 232 nafar, nazorat sinflarida 210 nafar o‘quvchilarning natijalari tahlil qilindi.

Tajriba va nazorat sinfi respondentlarining statistik ko'rsatkichlarini hisoblash va ularning statistik tahlilini o'tkazishda matematik statistika usullaridan foydalanildi.

Tajriba-sinov ishlari 3 bosqichda, ya'ni asoslovchi, shakllantiruvchi va yakunlovchi bosqichlarda olib borilgan bo'lib, u 2021-2022, 2022-2023, 2023-2024-o'quv yillarini o'z ichiga qamrab olgan.

1-jadval

Aksiologik yondashuvlar asosida o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha tajriba-sinov jarayonida ishtirok etgan o'quvchilar soni

№	Ta'lim muassasalari nomi	Tajriba-sinov ishlarida qatnashuvchi respondentlar soni		
		Tajriba sinfi	Nazorat sinfi	Jami
1.	Namangan viloyati Chust tumani	82	60	142
